

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati

2025-yil yanvar-dekabr

- I. Yalpi ichki mahsulot
- II. Sanoat ishlab chiqarishi
- III. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- IV. Inflyatsiya darajasi va iste'mol narxlari indeksi
- V. Asosiy kapitalga investitsiyalar
- VI. Bajarilgan qurilish ishlari
- VII. Chakana savdo tovar aylanmasi
- VIII. Tashqi savdo aylanmasi
- IX. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari
- X. Korxona va tashkilotlar soni



I. Yalpi ichki mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti (YAIM) hajmi joriy narxlarda **1 849 650,0** mlrd so'mni hamda 2024-yilning mos davri bilan taqqoslaganda real o'sish sur'ati **7,7 %** ni tashkil etdi.

Sanoat tarmog'ining o'sishi **6,8 %** ni va YAIM o'sishiga ijobiy hissasi **1,7** foiz punktni (f.p.) tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining o'sishi **4,4 %** ni va YAIM o'sishiga ijobiy hissasi **0,8** f.p.ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining o'sishi **14,0 %** ni tashkil etdi. Qurilish tarmog'ining YAIM o'sishiga ijobiy hissasi **1,0** f.p.ni tashkil etdi.

Xizmatlar ko'rsatish sohasida o'sish sur'ati **8,5 %** ni tashkil etdi. Shundan savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar **12,0 %** ga, tashish va saqlash, axborot va aloqa **14,5 %** ga hamda boshqa xizmat sohalari **5,4 %** ga o'sdi. Xizmatlar ko'rsatish sohasining YAIM o'sishiga ijobiy hissasi **3,9** f.p.ni tashkil qildi.

Mahsulotlarga sof soliqlar hajmi **7,4 %** ga o'sdi va uning YAIM o'sishiga ijobiy hissasi **0,3** f.p.ni tashkil etdi.



II. Sanoat ishlab chiqarishi

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida respublika korxonalari tomonidan **1 101 130,8** mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va sanoat ishlab chiqarishi indeksi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **106,8 %** ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoatning ulushi **86,0 %**, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati **7,0 %**, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash **6,4 %**, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish **0,6 %** ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi o'sishining asosiy omili bu ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarida ishlab chiqarish o'tgan yilning shu davriga nisbatan **7,7 %** ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda **3,5 %** ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida **3,5 %** ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, yig'ish va utilizatsiya qilish sanoatida fizik hajm indeksi **2,6 %** ga oshganligidir.

Qayta ishlash sanoati hajmlarining o'sishiga tayyor mahsulotlarning boshqa turlarini ishlab chiqarish hajmining oshishi (2024-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **199,7 %**), shuningdek elektr uskunalari ishlab chiqaruvchi korxonalardagi o'sish (**120,4 %**) sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Shu bilan birga, xom neft va tabiiy gaz qazib olish korxonalarida (2024-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **96,2 %**) hamda kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish sohasida (**92,5 %**) ishlab chiqarish hajmlarining pasayishi kuzatildi.



III. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot(xizmat)lari hajmi **538 919,7** mlrd so'mni yoki 2024-yilning mos davriga nisbatan **104,4 %** ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilikda, ovchilikda va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – **518 822,7** mlrd so'mni (**104,5 %**), o'rmon xo'jaligida – **15 081,5** mlrd so'mni (**103,2 %**), baliqchilik xo'jaligida – **5 015,5** mlrd so'mni (**103,2 %**) tashkil qildi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot(xizmat)lari hajmining oshishi, asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmining ko'payganligi (**4,4 %**) bilan bog'liq. Barcha toifadagi xo'jaliklarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining oshishi paxtaning – **25,4 %** ga, polizning – **16,2 %** ga, donli ekinlarning – **13,0 %** ga, uzumning – **7,6 %** ga, mevalarning – **6,4 %** ga va tuxumning – **7,0 %** ga oshishi bilan izohlanadi.

Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining **62,3 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, **29,4 %** i fermer xo'jaliklari, **8,3 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi xo'jaliklar hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



IV. Inflyatsiya darajasi va iste'mol narxlari indeksi

2025-yilda respublika iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasi **7,3 %** ni tashkil etdi.

2025-yilda oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'rtacha **5,4 %** ga qimmatlashib, inflyatsiya darajasiga **2,5** f.p. ta'sir qilgan bo'lsa, nooziq-ovqat mahsulotlari narxlari ushbu davrda **5,1 %** ga qimmatlashib, umumiy ko'rsatkichning **1,64** f.p. o'sish sur'atini, xizmatlar esa **13,9 %** ga qimmatlashib, umumiy ko'rsatkichni qo'shimcha **3,16** f.p. o'sish sur'atini ta'minladi.

2024-yilning dekabriga nisbatan INI yuqori chegarasi **117,1 %** ("Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari"), quyi chegarasi – **99,7 %** ga ("Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar") yetdi.

2025-yilning yanvar-dekabr oylari uchun INI o'sishiga eng katta ta'sir bu "Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar", "Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari", "Transport" bo'limlaridagi narxlar va tariflarning o'zgarishida bo'ldi (**+5,51** f.p., yoki umumiy o'sishning **75,5 %** i).

Boshqa bo'limlar narxlarining o'zgarishi ta'siri ancha kam bo'lib, umumiy hisobda **1,79** f.p.ni tashkil etdi.



V. Asosiy kapitalga investitsiyalar

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida, barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi **591 141,0** mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **110,5 %** ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar umumiy hajmida korxonalar mablag'lari hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar ulushi **15,3 %** ni, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar – **5,5 %**, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lar – **1,9 %**, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar – **65,9 %**, shundan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) – **40,5 %**, aholi mablag'lari – **6,3 %**, Respublika budjeti – **4,7 %**, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi – **0,4 %** ni tashkil qildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning 2024-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlarini moliyalashtirishning asosiy manbalari: to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) – **146,9 %**, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar – **127,2 %**, to'g'ridan-

to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar – **113,2 %**, aholi mablag'lari – **106,2 %**, Respublika budjeti – **105,8 %**, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lar – **104,6 %**, korxonalar mablag'lari – **100,8 %** dan iborat.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha past o'sish sur'atlari: Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi – **68,0 %** va boshqa kafolatlanmagan xorijiy investitsiya va kreditlar – **82,7 %** dan iborat.



VI. Bajarilgan qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida **313 887,8** mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **114,2 %** ni tashkil etdi. Qurilish ishlari umumiy hajmining **82 960,9** mlrd so'mi yoki **26,4 %** yirik korxona va tashkilotlar tomonidan, **149 858,3** mlrd so'mi yoki **47,8 %** kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan, **81 068,6** mlrd so'mi yoki **25,8 %** norasmiy sektor subyektlari tomonidan bajarildi.



VII. Chakana savdo tovar aylanmasi

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **482 443,1** mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **11,2 %** ga o'sdi.

Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasi 2024-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **19,8 %** ga o'sdi, bu esa umumiy savdo hajmining **17,0 %** ulushiga to'g'ri keladi. Kichik biznes subyektlarining chakana tovar aylanmasi 2024-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **9,6 %** ga o'sgan. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **73,9 %** ni, uyushmagan savdo tovar aylanmasi **9,1 %** ulush bilan **43 903,1** mlrd so'mni tashkil etdi.



VIII. Tashqi savdo aylanmasi

2025-yilning yanvar-dekabr oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi **81 166,8** mln AQSH dollarini tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan **13 928,4** mln AQSH dollariga yoki **20,7 %** ga ko'paydi. Eksport hajmi **33 812,3** mln AQSH dollariga yetdi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **24,0 %** ga oshdi. Import **47 354,5** mln AQSH dollariga yetib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **18,5 %** ga oshdi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **71,1 %** ni tashkil etdi, shu jumladan boshqa mahsulotlar (nomonetar oltin) – **29,0 %**, sanoat mahsulotlari – **11,8 %**, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar – **8,7 %**, kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar – **6,3 %**.

Import tarkibida asosiy ulushni mashinalar va transport uskunolari (**33,8 %**), sanoat tovarlari (**15,3 %**), shuningdek kimyoviy moddalar va ularga o'xshash mahsulotlar (**11,8 %**) tashkil etdi.



IX. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 050 292,5** mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **14,7 %** ga o'sdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga moliyaviy xizmatlarning **24,6 %** ga (ko'rsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining o'sishidagi ta'siri **4,0 f.p.**), savdo xizmatlari **13,8 %** ga (o'sishdagi ta'siri **2,5 f.p.**), yashash va ovqatlanish xizmatlari **10,4 %** ga (o'sishdagi ta'siri **2,3 f.p.**), transport xizmatlari **10,8 %** ga (o'sishdagi ta'siri **2,0 f.p.**), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **22,7 %** ga (o'sishdagi ta'siri **1,5 f.p.**) o'sishi ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi yashash va ovqatlanish (**226 955,8** mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish

sur'ati **110,4 %** ga yetdi), savdo xizmatlari (**186 957,3** mlrd so'm, **113,8 %**), transport xizmatlari (**188 270,8** mlrd so'm, **110,8 %**) va moliyaviy xizmatlar (**171 867,0** mlrd so'm, **124,6 %**)ga to'g'ri keladi.



X. Korxona va tashkilotlar soni

2026-yil 1-yanvar holatiga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **474,9** mingtani (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) tashkil etdi, ulardan kichik korxona va mikrofirmalar **403,8** mingta. Hududlar bo'yicha joylashgan eng ko'p soni esa Toshkent shahri (**108 678** ta), Toshkent (**46 479** ta), Samarqand (**41 091** ta), Farg'ona (**37 846** ta), Qashqadaryo (**30 424** ta), Buxoro (**28 831** ta) va Namangan (**27 097** ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning eng ko'p soni savdo sohasida – **153 370** ta, sanoat sohasida – **59 520** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – **34 881** ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – **30 374** ta hamda qurilish sohasida – **30 343** tani tashkil etdi.

2025-yil yanvar-dekabr oylarida respublikada **87,8** mingta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, shundan **82,4** mingtasi kichik korxona va mikrofirmalardir.

2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra respublikada chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni **18 164** tani tashkil etdi. Ularning **4 247** tasi qo'shma korxonalar va **13 917** tasi xorijiy korxonalardan iborat.

Tayyorlash uchun mas'ul:
Statistika ma'lumotlarini
muvofiglashtirish va tarqatish
boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63
Kontaktlar: info@stat.uz
Tel.: +998 71 203-80-00 (1045)

